

TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

Jo'rayev Eldor Berdibekovich
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Jahonda global moliyaviy beqarorlikning kuchayishi sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda bank kreditlarining roli oshib bormoqda. Tijorat banklarining kredit qo'yilmalari bank faoliyatining asosiy noliyaviy manbai hisoblanadi. Kredit jarayonlarini tashkil etish darajasi bankning umumiy ishi va uni boshqarish sifatining eng yaxshi ko'rsatkichidir. Banklar uchun kreditlar berish nafaqat foyda keltiruvchi operatsiya, balki asosiy daromad manbalaridan biridir. Boshqa so'z bilan aytganda, har qanday iqtisodiy rivojlanish darajasida, hatto korxonalarining moliyaviy beqarorligi sharoitida ham kredit berish to'xtamaydi. Aynan kredit operatsiyalarini va kredit portfelini bankda to'g'ri va oqilona kredit siyosati asosida eng katta daromad olish imkoniyatini beradi. Kredit portfelini shakllantirish va portfel sifatini baholash bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Optimal, sifatli kredit portfeli bankning likvidligi va ishonchlilikiga katta ta'sir qiladi. Bankning ishonchliligi ko'pchilik uchun, eng muhimi - omonatchilar bo'lgan va bank xizmatlaridan foydalanadigan aksiyadorlar, korxonalar, aholi uchun muhimdir.

Bankning barqarorligini taminlashda asosiy vosita kredit portfeli sifatini boshqarish maqsadi maqbul holatga, ya'ni optimal kredit portfeliga erishish hisoblanadi. Xatar va rentabellik darajasi nisbati optimal kombinatsiyasini amalga oshiradigan kredit portfeli optimal kredit portfeli deb ataladi. Kredit portfeli sifati ya'ni tavakkalchilik darajasi va rentabellik holati bilan ajralib turadi. Ularning o'zaro munosabatlarining umumiy shakli quyidagicha: daromad qancha ko'p bo'lsa, xavf ham shuncha yuqori bo'ladi. Umumiyligini qilib aytganda, optimal kredit portfeli - boshqa barcha kredit maqsadlarini belgilaydigan kreditlash faoliyatining global maqsadi sifatida ko'rildi. Tijorat banki kredit portfelining konsepsiysi va mohiyatini aniqlash masalasiga bir qator yondashuvlar mavjud.

Bankning barqarorligini taminlashda asosiy vosita kredit portfeli sifatini samarali boshqarish, portfel daromadlilagini maqbul holatga keltirish, ya'ni optimal kredit portfeliga erishish muhim hisoblanadi. Quyida keltirilgan 1-jadvalda tijorat bankining kredit portfelini samarali boshqarishda kredit portfeli dinamikasining tahlil ko'rsatkichlari keltirilgan.


Tijorat banklarining turli davlatlarda kreditlash jarayonida yuzaga kelayotgan risklarni kamaytirish, kreditlashdan daromadlilikni oshirish, bank likvidlilagini ta'minlash, muammoli kreditlarning (NPL) ulushini kamaytirish, tijorat banklarida kredit portfelini samarali tashkil etishning innovasion yondashuvlarini ishlab chiqish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Kredit operatsiyalarini olib borishda bank nafaqat ularning hajmini oshirishga, balki kredit portfelining sifatini yaxshilashga ham intiladi.

Kredit portfeli dinamikasi tahlili ko'rsatkichlari⁶⁰

1.	Yalpi kredit portfeli
2.	Sof kredit portfeli
3.	Tavakkalchilik bilan ajratilgan kredit portfeli
4.	Risk guruhlari bo'yicha tuzilgan kredit portfeli
5.	Rentabellik bo'yicha tuzilgan kredit portfeli
6.	Diversifikatsiya qilingan kredit portfeli
7.	Zararlarni qoplash uchun yaratilgan zaxira miqdori

Bankning kredit faoliyati sifatini baholashda bir qator ko'rsatkichlar bo'yicha baholash mumkin, ular orasida eng muhim uning kredit portfelining holatidir. Kredit portfeli sifatini ma'lum bir sanada tahlil qilishdan tashqari, kredit portfeli va sifat holati dinamikada o'r ganiladi, ya'ni bir necha yillar davomida asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha chiziqli tahlil o'tkaziladi.

Shuningdek, kredit berish va boshqa kredit operatsiyalari yuqori xavflilik bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, ular bank faoliyatining maqsadlariga javob berishi kerak, ya'ni likvidlikning maqbul darajasi bilan maksimal foyda olish. Bu kredit portfelining kredit xavfi, rentabellik va likvidlik kabi xususiyatlarini nazarda tutadi. Ular ma'lum bir bank kredit portfelining afzalliklari va kamchiliklarini baholash mezonlariga mos keladi, ya'ni uning sifatini baholash mezonlari. Kredit portfelining sifatini uning kredit tuzilishi va balans likvidligining maqbul darajasida rentabellikning maksimal darajasini ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lgan tuzilishining xususiyati deb tushunish mumkin. Optimal kredit portfelini shakllantirish uchun bank tegishli kredit siyosatini ishlab chiqishi, ya'ni bozor segmentlarini to'g'ri tanlashi, uning faoliyatining tuzilishini aniqlashi muhimdir.



1-rasm. Kredit portfelini boshqarishda portfeli baholash tizimi elementlari⁶¹

⁶⁰ Muallif tomonidan boshqa tadqiqotlar asosida musatil tayyorlandi

⁶¹ Muallif tomonidan boshqa tadqiqotlar asosida musatil tayyorlandi

Kredit portfelini boshqarishda portfel sifatiga katta e'tibor berilishi kerak. Sifatsiz kredit portfeli, kreditlarning asossiz ravishda buzilishi, ishonchsiz qarz oluvchilarga kreditlar berilishi banklarning moliyaviy muvozanatiga sabab bo'lishi mumkin. Qaytarilmaydigan ssudalarni beradigan bank haqiqiy kapital to'planishini rag'batlantirish va bankning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan kredit resurslarini isrof qiladi. Kredit portfelini sifatli tashkil etish va baholashda aktivlar va majburiyatlar shartlarini boshqarish tizimini o'zgartirish, natijada foiz stavkalari farqi va pirovard natijada rentabellik muhim ahamiyatga ega. Har bir manbaning o'ziga xos xususiyatlari, o'zgaruvchanligi va zaxira talablari mavjud. Ularni boshqarishga yondashuv har bir mablag' manbasini alohida ko'rib chiqadigan moliyaviy resurslarni konvertatsiya qilish usuli hisoblanadi.

Kredit portfeli sifatini baholashda ikki xil tahlil yo'nalihidan foydalaniadi. Miqdoriy tahlil bankning kredit portfelining tarkibi va tuzilishini bir qator miqdoriy, iqtisodiy mezonlarga muvofiq dinamikada o'rganishni o'z ichiga oladi: a) kredit qo'yilmalarining turlari va hajmi bo'yicha tarkibi; b) qarz oluvchilar guruhlari bo'yicha kredit qo'yilmalarining tarkibi; d) kredit shartlari va taqdim etilgan kreditlarni qaytarish muddati; e) kredit foiz stavkalari darajasi, f) sanoat mansubligi.

Ushbu tahlil kredit investitsiyalarining afzal yo'naliishlarini, rivojlanish tendensiyalarini, shu jumladan kreditlarni to'lash va ularning rentabelligi bilan bog'liqligini aniqlashga imkon beradi.

Miqdoriy tahlildan so'ng bank kredit portfelining sifati tahlil qilinadi. Qarz oluvchining faoliyat sohasi va uning turi ma'lum iqtisodiy sharoitlar uchun har xil tavakkallarga ega, shu sababli kredit berish hajmi va maqsadlariga qarab kredit turlari turlicha baholanadi, bu bankning kredit portfelini o'rganishda hisobga olinishi kerak. Buning uchun ma'lum bir davrdagi tovar aylanmasi yoki ma'lum bir sanadagi qoldiq hisoblab chiqilgan har xil nisbiy asosiy ko'rsatkichlardan foydalaniadi. Bularga, masalan, mijozning butun yalpi kredit portfelidagi muammoli kreditlarning ulushi; muddati o'tgan qarzning o'z kapitaliga nisbati va boshqalar. Kredit portfelining sifat ko'rsatkichlari asosida kredit berish tamoyillariga muvofiqligini va qarz berish operatsiyalari tavakkalchilik darajasi, berilgan likvidlilik istiqbollarini baholash mumkin.

Shuningdek, kredit portfelining sifati tahlil qilinayotganda, kreditlarning ta'minlanganlik darajasi, mijozlarning to'lov qobiliyati va qarzni qaytarish intizomi ham muhim ahamiyatga ega. Bank kreditlarini ajratish jarayonida risklarni kamaytirish uchun kafolatlar, garovlar va boshqa ta'minot turlarining ishonchliligi tahlil qilinadi. Kredit portfelining barqarorligi va sifati bankning umumiyl moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi, shu sababli doimiy monitoring va kredit siyosatini takomillashtirish zarur. Shu bilan birga, bank kreditlash strategiyasini ishlab chiqishda iqtisodiy muhitning o'zgarishlari, inflyatsiya darajasi va sohalarning rivojlanish tendensiyalari ham inobatga olinishi lozim.

Bank kredit portfelini shakllantirish bosqichlari

Bankning kredit siyosati maqsadlari va strategiyasiga muvofiq kredit limitlari tizimini shakllantirish

Kredit portfelini shakllantirishda alohida kreditlash obyektlari va turlari bo‘yicha kredit mablag‘lari ajratish

Kredit portfelining holatini tahlil qilish va uni sifatli boshqarish

2-rasm. Tijorat banklari kredit portfelini shakllantirish jarayoni⁶²

Yuqorida keltirilgan rasmda tijorat banklari kredit portfelini boshqarishda portfelning shakllantirish jarayoni va uning samaralim boshqarishdagi ahamiyati keltirilgan. Keltirilgan ma'lumotlar asosida aytish mumkin, tijorat bankining kredit portfelini shakllantirish kredit siyosatini amalga oshirishning asosiy bosqichi hisoblanadi. Kredit portfelining holati va tuzulishi nafaqat bankning kredit siyosati sifatini, balki kelgusida kredit faoliyatni natijalarini prognoz qilish imkonini ham beradi.

Bugungi kunda tijorat banklari o'zlarining kredit portfelini faqatgina o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda boshqarishlari ancha murakkab bo'lgan masala hisoblanadi. AQSh, Kanada, Angliya, Germaniya, Shvetsariya, Norvegiya, Italiya, Shvetsiya va boshqa rivojlangan davlatlarda kredit portfelini samarali tashkil etish va sifatli boshqarish uchun (Credit portfolio management yoki loan portfolio management) ya'ni CPM katta miqdordagi, asosan likvidlilik darajasi past, turli xildagi kreditlarga ega bo'lgan tijorat banklari va boshqa moliya institutlari uchun asosiy maslahatchi bo'lib hisoblanadi.

Kredit portfelini yuqori daromadli va sifatli tashkil etish, bank faoliyatida aktivlar va majburiyatlar shartlarini boshqarish tizimini baholashda o'zgartirish, natijada foiz stavkalari farqi va pirovard natijada rentabellik muhim ahamiyatga ega sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Omonov A.A. "Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari", i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. -Toshkent, 2008-yil.
2. Sattarov O.B. "O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish", i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2018-yil.
3. Otamurodov H.H., "Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish", PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Toshkent, 2019-yil.
4. Rasulov T.S. va Ziyodilloyev X.R., "Tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirish", Monografiya, Toshkent-2024.

⁶² Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida mustaqil tayyorlandi.